

**MILLIY GVARDIYA FAOLIYATIDA JANGOVAR BO'LINMA KOMANDIRINING  
AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH****Xolmuratov Temur Abdullaevich***O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**Magistratura tингловчиси подполковник*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining xizmat faoliyatida jangovar bo'linmalar komandirlarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar hamda ularda mustahkam axloqiy-ruhiy immunitetni shakllantirish, shuningdek, Milliy gvardiya oliy harbiy ta'lif muassasasida bo'lg'usi komandirlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Milliy gvardiya, ofitser, kursant, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, jangovar bo'linma, jangovar vazifa, jangovar mashq.*

**Аннотация:** В данной статье раскрываются современные требования к морально-психологической подготовке командиров боевых подразделений Национальной гвардии Республики Узбекистан и пути формирования у них твёрдого морально-психологического иммунитета. Также рассмотрены вопросы дальнейшего совершенствования морально-психологической подготовки будущих командиров в высших военных учебных заведениях Национальной гвардии.

**Ключевые слова:** Национальная гвардия, офицер, курсант, морально-психологическая подготовка, боевое подразделение, боевая задача, боевая тренировка.

**Annotation:** This article reveals the modern requirements for moral and psychological training of combat unit's commander of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, the way of forming in them solid moral and psychological immunity. And also proposals for further improvement of moral and psychological training of cadets of military schools of the National Guard are explored.

**Key words:** The National Guard, an officer, a commander, a cadet, moral and psychological training, combat unit, combat mission, combat training.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari va Milliy gvardiya qo'mondonligi tomonidan qo'shinlar jangovar tayyorgarligini va qobiliyatini takomillashtirishga, jangovar o'quv mashqlar monitoringini olib borish ishlariga katta ahamiyat qaratilmoqda. Avvalambor, bunday nazorat Milliy gvardiya bo'linmalarining xizmat o'tash xususiyatlari bilan bog'liq.

Shu bilan birga, Milliy gvardiya jangovar bo'linmalarining Vatanimiz xavfsizligini mustahkamlash, uning mudofaa qobiliyatini kuchaytirish bo'yicha zaruriy vazifalari belgilab berilgan bo'lib, ushbu qo'shin turi jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini hamda jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda alohida o'rincutadi.

Jangovar tayyorgarlikning asosi bo'lgan jismoniy tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karerasida va umuman, turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining ruhiy jihatdan chidamli, turli qurolli to'qnashuvlarga bardoshli bo'lishi, shaxsiy tarkib o'rtasidagi yo'qotishlarning oldini olishga zamin yaratadi.

Hozirda, Milliy gvardiya jangovar bo'linmalarida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari bilan to'laqonli shug'ullanish, harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirib borish va o'z yo'nalishi bo'yicha vazifalarni aniq bajarishi uchun tayyor bo'lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jangovar bo'linmalar shaxsiy tarkibi, shu o'rinda komandirlarning har tomonlama sog'lom va chidamli hamda safdoshlariga namuna bo'lishi, har qanday murakkab jismoniy va ruhiy sinovlarga bardosh berishi yuklatilgan jangovar-xizmat vazifalarini samarali bajarilishini kafolatlovchi omildir.

Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2018-yil 10-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida "Qo'shinlar istalgan daqiqada o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi kerak. Ular jangovar tayyorgarlikning yangi tizimi bo'yicha muntazam shug'ullanib borishi, barcha harbiy xizmatchilar haqiqiy professional kadr bo'lishi uchun o'z sohasini puxta egallashi shart" deb alohida ta'kidlab o'tdilar. Shu boisdan, avvalo murakkab o'quv-jangovar sharoitlarda barqaror va ishonchli faoliyat yuritish uchun jangovar bo'linmalar komandirlarini zamon talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalarini yanada oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday murakkab sharoitlarda va favqulodda vaziyatlarda Milliy gvardiya bo'linmalari jangovar-xizmat faoliyatining muvaffaqiyati komandirlar va boshqliqlarning harbiy va maxsus bilim darajalari, bo'linmalarni mohirlik bilan boshqarish, tashkilotchilik sifatlari va axloqiy-ruhiy holatlarining barqaror va mustahkamligiga bog'liq. Bu esa, hozirgi sharoitda amaliy faoliyat yuritayotgan Milliy gvardiya ofitserlari, xususan, jangovar bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini chuqur tahlil etishni talab etadi.

Jangovar bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish haqida so'z yuritishda shuni ta'kidlash joizki, amaliy tajribalardan kelib chiqib, mustahkam va barqaror axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka ega harbiy xizmatchi, to'ma'nodagi jangovar bo'linma komandiri bo'la oladi. Ammo u mustahkam va barqaror axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka erishishi uchun mashaqqatli yo'llar va bosqichlarni bosib o'tishiga to'g'ri keladi. Jangovar bo'linma komandirida mustahkam va barqaror axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni qaror toptirishning dastlabki bosqichi uning kursantlik davriga to'g'ri keladi. Keyingi bosqichi esa, harbiy qismlarda xizmatni o'tash bilan bog'liq shart-sharoitlarda shakllanadi.

Bo'lajak jangovar bo'linmalar komandirlarining kursantlik davridagi axloqiy ruhiy tayyorgarligi xususida to'xtalib o'tish joiz.

Birinchidan, maxsus qo'shinlar taktik-qo'mondonligi yo'nalishida tahsil oluvchi, shuningdek bo'lajak harbiy pedagog va psixologlarda maxsus bo'linma komandiriga

xos psixologik xususiyatlarni shakllantirish uchun nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda olib borish samarali natijalarga erishish uchun qulay zamin yaratadi.

Shu jumladan, maxsus tayyorgarlik shaharchasida olovli-ishg'ol qilish to'siqlari, balandliklar, tog' maketlari yoki dala mashg'ulotlarida amalga oshiriladigan amaliy mashqlarni muntazam ravishda takomillashtirib, jahon andozalariga mos keladigan tarzda bajarish, bo'lajak jangovar bo'linmalar komandirlarining bilim, ko'nikma va malakalarini yanada boyitadi. Bunda nafaqat jismoniy, balki ruhiy toliqishga bardosh berishga qolaversa, o'zining ichki kechinmalarini jilovlay olishga, qo'rquv va vahimani yengishga, jangovar bo'linma shaxsiy tarkibi orasida jangovar ruhiy holatni ushlab turishga, oldida turgan qiyinchiliklarni mardonavor yengishga, yuqori jang san'atini ko'rsata bilishga, tepaliklar, tunnellar, olovli to'siqlar va jarliklarni bosib o'tishda barcha aqliy va jismoniy qobiliyatini ishlata bilishi kerak.

Ikkinchidan, bo'lajak jangovar bo'linma komandirida nafaqat amaliy ko'nikma balki, u yetarli zehnga ega bo'lishi ham zarur. Bu bosqichda bo'lajak jangovar bo'linma komandiri quyidagilarni bilishi zarur. Jangovar bo'linmaga qo'yilgan vazifani, jangovar harakatlar xususiyatlarini, bo'linmada yuqori jangovar shaylikni ushlab turishni, sergaklik, intizomiylik va tashkilotchilikka oid chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'llarini aniqlashni, jangovar bo'linmalarning maxsus-taktik qobiliyatları to'g'risida aniq ma'lumot olish manbalarini bilishi, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatidan doimiy ravishda xabardor bo'lishi lozim.

Demak, kursantlik davridan boshlab, jangovar bo'linma komandirlarini zaruriy mashqlar orqali chiniqtirib borilmasa, kelajakda ulardan namunali komandir chiqishiga yoki yaxshi jangovar bo'linma komandiri sifatida toblanishiga erisha olmaymiz. Jangovar bo'linma komandirining mahoratini oshiruvchi maxsus-taktik tayyorgarlik mashqlarini eng muhim jihatlaridan biri - uni haqiqiy jangovar sharoitlariga yaqinlashtirishdir. Bu borada, jangovar bo'linma komandirining ruhiy tayyorgarligida ikkita muhim jihat mavjud:

birinchidan, bo'lajak jangovar bo'linma komandiri Milliy gvardiya faoliyatining xususiyatlarini harbiy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarini tomonidan olib borilayotgan mashg'ulotlar vaqtida his etishi kerak. Boshqacha aytganda, bo'lajak komandirlar jangovar harakatlarning barcha turlarini bilishi va jangovar harakatlar olib borishning nazariy va amaliy metodikasini o'zlashtirishi lozim. Harbiy psixologlar esa imkon darajasida jangovar vaziyatda jangovar bo'linma shaxsiy tarkibining ruhiy zo'riqishini oldini olish, murakkab psixologik vaziyatga tushishiga yo'l qo'ymaslikka oid tarbiyaviy va psixologik ta'sir o'tkazishlari zarur;

ikkinchidan, mashq qilishlarni avtomatik ravishda bajarilishiga olib kelish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon ham ta'lim oluvchiga ruhiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun ham mashqlarni boshqarishda harbiy pedagog ta'lim oluvchining ruhiy holatini doimo kuzatishi va bosqichma-bosqich tarbiyalashi zarur. Mashqlar davomida o'ta qo'pollik, axloqsizlik ta'lim oluvchini jangovar ta'limdan "bezdiradi", jangovar shayligiga salbiy ta'sir qiladi.

Umuman olganda, o'quv jangovar mashqlari bo'lajak komandirlarga nafaqat axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash uchun, balki yuksak intellektual sifatlarini shakllantirish hamda jangovar o'quv vazifalarni minimal ruhiy yo'qotishlar bilan bajara olish imkonini yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mazkur yo'nalishdagi ishlarni yana bir jihat shundaki, jangovar bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy kamolotga erishishi avvalo, uning har qanday qiyin va murakkab sharoitlarda ham harbiy mahorat, bilim va ko'nikmalaridan o'rinni tarzda foydalana bilishida namoyon bo'ladi. Binobarin, shaxsiy tarkibning yutuqlari va erishgan natijalariga qarab, jangovar bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy komilligini aniqlash mumkin.

Ya'ni, jangovar bo'linma komandiri shaxsiy tarkib bilan o'tkazilgan o'quv mashqlardan keyin taktik, maxsus-taktik harakatlar va o'q otish samaradorligi chuqur tahlil qilinadi hamda tegishli xulosalar chiqarilib, baholanadi. Bunda asosiy e'tibor harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy holatiga ham qaratiladi. Ijobiy natijalar jangovar bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy kamolotga erishganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, jangovar bo'linmaning namunali komandiri yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lishi, mustaqil fikrashi, irodali bo'lishi, shaxsiy tarkib imkoniyatlarni safarbar qila olishi, ijodiy fikrashi o'z hissiyotlarini idora qila olishi, tezkor qaror qabul qilishga qodirligi, sadoqatli, mard, jasur, tashkilotchi bo'lishi – uning asosiy bezagidir. Shuningdek, yuqori jangovar faolligi hamda vaziyatni to'g'ri baholashi, psixologik ta'sirlarga qarshi turishi, mashaqqatlarga bardosh berishi bilan u o'zining shaxsiy tarkibiga o'rnak bo'lishi kerak.

Zero, jangovar bo'linmalarni boshqarish tizimi har bir komandirga axloqiy-ruhiy va jismoniy og'ir vaziyatlarda teran fikrlash va tezkor qaror qabul qila olish qobiliyatini oshiradi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga ko'ra, quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin: jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o'rtasidagi yo'qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta'sir va zarbalar bilan bog'liq ekanligini hisobga olgan holda, innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bo'linmalar tarkibining mustahkam ma'naviy va axloqiy-ruhiy immunitetga ega bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq;

mintaqada mavjud xavf-xatarlar va tahdidlar kuchayib borayotganini inobatga olib, barcha bo'linmalarda o'tkazilayotgan jangovar tayyorgarlik mashqlarida tayyorgarlikning yangi tizimi bo'yicha muntazam shug'ullanib borishini ta'minlash, taktik harakatlarni yanada takomillashtirish hamda mobilligini oshirish lozim;

Milliy gvardiya jangovar shayligini va salohiyatini muntazam oshirib borish, uni zamонавиъ талаблар ва xalqaro andozalar asosida takomillashtirib borishga dolzarb strategik vazifa sifatida qarash zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jangovar bo'linma komandirining axloqiy-ruhiy kamolotga erishish shartlari qiyin va murakkab vazifalarni bajarishni talab etishini inobatga olib, bu talablarni bajaruvchi komandir nafaqat harbiy bilim, balki kuchli axloqiy-ruhiy irodaga ega bo'lishi ham zarur. Shunda, u har qanday jangovar vazifa va topshiriqlarni puxta va mukammal bajara oladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. Postda//38-son. 17-dekabr 2016 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni. Postda//7-son. 11 fevral 2017 y.
3. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. Postda//50- son. 8 dekabr 2017 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Postda//52-son. 23-dekabr 2017 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. Postda//3-son. 13 yanvar 2018 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdag'i majlisidagi nutqi. Postda//3-son. 13 yanvar 2018 y.